

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.37/27.02.2020.YU.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI**

SHARIPOV AKRAMJON QURBONOVICH

**XUSUSIY MULK HUQUQINING DAXLSIZLIGINI
TA’MINLASH MUAMMOLARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the PhD (PhD)

Sharipov Akramjon Qurbonovich

Xususiy mulk huquqining daxlsizligini ta'minlash

muammolari.....3

Шарипов Акрамжон Курбонович

Проблемы обеспечения неприкосновенности права частной

собственности.....23

Sharipov Akramjon Qurbonovich

Problems of ensuring the inviolability of the right to private

property.....44

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....48

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.37/27.02.2020.YU.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI**

SHARIPOV AKRAMJON QURBONOVICH

**XUSUSIY MULK HUQUQINING DAXLSIZLIGINI TA’MINLASH
MUAMMOLARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq.

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Yu794 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.sudyalaroliymaktabi.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Aminjonova Matluba Axmedovna
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kuldashev Nuriddin Abduganiyevich
yuridik fanlar doktori, professor

Xidoyatullaev Alisher Toirovich
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi huzuridagi PhD.37/27.02.2020.YU.107.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « » _____dagi soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (998) 555010189; faks: (998) 555010189, e-mail: www.sudyalaroliymaktabi.uz@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Sudyalar oliy maktabining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (998) 555010189; faks: (998) 555010189, e-mail: www.sudyalaroliymaktabi.uz@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « » _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil « » _____dagi ____-raqamli reestr bayonnomasi).

I.I.Nasriev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

O.B.Shamsiddinova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(Phd),

F.X.Otaxonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (RhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda xususiy mulk huquqi daxlsizligini ta'minlash jamiyat hayotining ajralmas va zarur shartidir. "Xalqaro mulk huquqlari indeksi" (IPRI)ning 2024-yildagi hisoboti 125 davlatni qamrab olib, bu jahon aholisining 93,4% va jahon yalpi ichki mahsulotining 97,5% ni tashkil etadi. Bunda o'rtacha ko'rsatgich 5,18 ballga pasayib, bu 2023-yilga nisbatan 0,53% kamayganini ko'rsatadi¹. Yoki bo'lmasa, "Jahon odil sudlov loyihasi" xalqaro nodavlat tashkilotining 2024-yil uchun reyting hisobotidagi "Qonunlarga rioya qilish" indikatori natijalariga ko'ra, yer yuzida yashovchi 6,3 milliard aholining xususiy mulk huquqi daxlsizligi u yoki bu tarzda poy-mol etilgan². Mazkur tendensiyalar xususiy mulk huquqining daxlsizligini ta'minlash borasida o'zgarib borayotgan bozor talablariga moslashtirish va rivojlantirishning muhimligini ko'rsatadi.

Dunyoda xususiy mulk huquqi daxlsizligi kafolatini mustahkamlashning hozirgi bosqichida mazkur munosabatlardagi taraflarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash, ushbu huquqni buzayotgan shaxslarning javobgarligini kuchaytirish sohasida ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada, ayniqsa xususiy mulkka noqonuniy tajovuz qiluvchilarining javobgarlik masalasini takomillashtirish, xususiy mulk mulkdori hamda uni insofli egallovchisi o'rtasida yuzaga keluvchi nizoga oid ishlar ko'rilishida taraflarning huquq va majburiyatlarini belgilash, sohaga doir muammolarning ilmiy-nazariy va amaliy yechimini topish hamda ilmiy tahlil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda bu sohadagi muammolarni bartaraf etish o'ziga xos yo'nalishda amalga oshirilayotgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarda Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni bilan mamlakatni rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish va shu orqali mulk huquqlarining daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash belgilandi³.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (1995, 1996), Yer kodeksi (1998), Shaharsozlik kodeksi (2021), Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks (2018), Iqtisodiy protsessual kodeksi (2018), Fuqarolik protsessual kodeksi (2018), Uy-joy kodeksi (1998), Jinoyat kodeksi (1994), Jinoyat-protsessual kodeksi (1994), Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (1994), "O'zbekiston Respublikasida mulk to'g'risida"gi (1990), "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar (2012) hamda boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va

¹<https://propertyrightsalliance.org/news/available-online-2024-international-property-rights-index/>

²<https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/country/2024/Uzbekistan/Regulatory%20>

³<https://lex.uz/docs/-5841063>

texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xususiy mulk huquqining daxlsizligini ta‘minlash masalalarining u yoki bu jihatlari bir qator huquqshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, milliy olimlarimizdan H.Rahmonqulov, O.Oqyulov, I.Zokirov, M.Baratov, X.Azizov, A.Muxammadiyev, M.Aminjonova, D.Chiniyev, Q.Mehmonov, V.Ergashev, M.Ashurova, N.Imomov, N.Ashurova, Yu.Xodjiyev, J. Raxmatillayev, O.Shamsiddinova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Xususiy mulk huquqining daxlsizligini ta‘minlash muammolari MDH davlatlarida quyidagi olimlarning tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan: A.S.Gayduk, I.P.Kulikova, D.I.Meyer, G.N.Andreyev, T.V.Yefimseva, V.Mazayev, N.A.Sirodoyev, O.I.Krassov, I.Noviskiy, G.Kuznesov, N.V.Karlova, D.B.Goroxov, R.S.Bevzenko, Yu.Yu.Popov, P.Saynazarova va M.Saaduyev, Ye.V.Bogdanov.

Xorijiy davlatlarda xususiy mulk huquqining daxlsizligini ta‘minlash bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, B.Bruce, O.Filippova, H.Sauma va M.Sanabria, R.Craig, L.Griggs, R.F.Croucher, R.Stein, P.O‘Connor, F.Wilder, shuningdek, D.I.Brandon, M.L.Cooper, J.H.Greshin, A.L.Harris, J.M.Head Jr., K.R.Jacques, L.Wiggins, W.Prosser⁴larning tadqiqotlarda xususiy mulk huquqning daxlsizligi masalalari turli darajada o‘rganilgan.

Ammo, xususiy mulk huquqining daxlsizligini ta‘minlashga doir masalalar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida yaxlit tarzda tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Xususiy mulk huquqining daxlsizligini ta‘minlash muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar doirasida amalga oshirilgan (2022 – 2025).

Tadqiqotning maqsadi xususiy mulk huquqining daxlsizligini ta‘minlash kafolatlarini yanada kuchaytirish hamda bu boradagi tartib-taomillarni takomillashtirish masalalari bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xususiy mulk huquqi daxlsizligini ta‘minlashning vujudga kelishi hamda O‘zbekistonda tadrijiy rivojlanish bosqichlarini o‘rganish;

xususiy mulk huquqlari daxlsizligi tushunchasi, uni ta‘minlashning mazmun-mohiyati, huquqiy asoslari va ahamiyatini yoritish;

O‘zbekiston Respublikasida xususiy mulk huquqlari daxlsizligini ta‘minlashga oid mavjud bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarini tahlil qilish, ulardagi bo‘shliqlar, noaniqliklar hamda ziddiyatlarni aniqlash;

⁴Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida batafsil keltirilgan.

huquqni qo'llashning sud amaliyotida xususiy mulk huquqlari daxlsizligini ta'minlashga doir ishlar ko'rilishining o'ziga xos xususiyatlari va sohaga oid muammolarni tadqiq etish;

xususiy mulk huquqlari daxlsizligini ta'minlashga oid xorijiy mamlakatlar tajribasini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish;

milliy qonunchilikni yanada takomillashtirishga qaratilgan taklif va xulosalarni ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti xususiy mulk huquqining daxlsizligini ta'minlashni takomillashtirish bilan bog'liq huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti xususiy mulk huquqining daxlsizligini ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va tajribasi hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mobaynida tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, sotsiologik so'rov, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili, qonun hujjatlarini ilmiy sharhlash, kuzatuv, huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda ko'rinadi:

xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilish maqsadida mulkni insofli egallovchining mulkiy huquqlari himoya qilinishiga doir takliflar asoslantirilgan;

xususiy mulk huquqi daxlsizligini ta'minlashning qo'shimcha kafolatlarini yaratish maqsadida mulkdorning buzilgan huquqlarini tiklashning moliyaviy mexanizmlarini tatbiq etish lozimligi asoslantirilgan;

xususiy mulk huquqining daxlsizligini ta'minlashni oshirish maqsadida sud tomonidan turar joyga nisbatan insofli egallovchi deb topilgan jismoniy shaxsdan ushbu turar joyni unga nisbatan mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab uch yil o'tgach natura shaklida talab qilib olish tartibini bekor qilish asoslantirilgan;

xususiy mulk huquqining daxlsizligini kuchaytirish maqsadida xususiy mulk bo'lgan turar joyni insofli egallovchidan talab qilib olinmasligi natijasida mulkdorga yetkazilgan zarar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo'yicha respublika maqsadli jamg'armasi" hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi "Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo'yicha hududiy maqsadli jamg'arma"lar mablag'lari hisobidan qoplab berilishi asoslantirilgan;

xususiy mulk huquqi daxlsizligini ta'minlashni yanada chuqurlashtirish maqsadida turar joy insofli egallovchidan qonunchilikda belgilangan tartibda talab qilib olinishiga yo'l qo'yilmasligi natijasida mulkdorga yetkazilgan zararining qoplab berilishi zarurligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining "Natsionalizatsiya to'g'risida"gi hamda

“Rekvizitsiya to‘g‘risida”gi qonunlarini qabul qilish zarurati asoslantirilgan;
milliy qonunchiligimizga “yer uchastkalarining ekspropriatsiyasi” huquqiy atamasini joriy etish taklifi asoslantirilgan;

mulkdor jismoniy shaxslar (uy-joyi) va mulkdor nodavlat yuridik shaxslar (noturar joyi)ning xususiy mulk huquqi daxlsizligini yuridik jihatdan tengligini baravar ta‘minlash hamda samaraliroq muhofaza qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan;

milliy qonunchiligimizga “shaxsiy mulk” huquqiy atamasini joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

milliy qonunchiligimizda shaxslarning uy-joy yoki noturar joy daxlsizligini buzish uchun ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik ko‘zda tutilayotgani hamda advokatlarning va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining sudga qadar bosqichda mulkdorlar huquqlarini himoya qilishdagi ishtirokini belgilash bilan bog‘liq takliflari isbotlab berilgan;

xususiy mulk huquqi daxlsizligini muhofaza qilishni yanada chuqurlashtirish uchun Konstitutsiyamizda mavjud “inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi” to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy qoidani yuridik kuchi bo‘yicha quyi turuvchi normativ-huquqiy hujjatlarga joriy etish bo‘yicha qonun loyihasi ishlab chiqilgan;

mulkdorlarning xususiy mulki bo‘lgan yer uchastkasiga o‘zgalarning noqonuniy kirish (o‘tish)larini cheklashni qonunan qo‘shimcha kafolatlash zarurati isbotlab berilgan;

mulkdorlarning xususiy mulki bo‘lgan yer uchastkasiga o‘zgalarning noqonuniy kirish (o‘tish)larini cheklash choralari ko‘rish mas‘uliyatini oshirish hamda o‘zga shaxslarning erkin harakatlanish huquqini kafolatlash yuzasidan takliflar asoslab berilgan;

ko‘char yoki ko‘chmas mulk ko‘rinishidagi xususiy mulkni o‘zboshimchalik bilan egallab olgan shaxsdan mulk egasi o‘z mulkini qaytarib olishda mustaqil zaruriy choralar ko‘rishi yuzasidan takliflar asoslantirilgan;

xususiy mulk bo‘lgan turar joyni insofli egallovchilar huquqlarini qo‘shimcha kafolatlash va mulkdorning buzilgan huquqlarini tiklashning moliyaviy mexanizmlarini qo‘llash borasidagi takliflar asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik va xalqaro huquq normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo‘llash amaliyoti, huquqshunoslar va aholi o‘rtasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnoma-anketa shakllariga asoslangan, statistik ma‘lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy hamda xorijiy nashrlarda e‘lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan ilmiy tadqiqot faoliyatida, qonun ijodkorligida, huquqni qo‘llash amaliyotida foydalanishda, tegishli protsessual qonunchilik normalari sharhlashda ko‘rinadi.

Amaliy ahamiyati fuqarolik huquqi, jumladan, xususiy mulk huquqi daxlsizligini ta'minlash mavzularida tadqiqot ishlarini olib borishda, "Fuqarolik huquqi", "Yer huquqi" va "Mulk huquqi" kabi fanlarni o'qitish jarayonida hamda metodik tavsiyalar tayyorlashda va boshqa huquqiy fanlar yuzasidan ma'ruza matnlarida, o'quv-uslubiy ta'minotni ishlab chiqish jarayonida qo'llanilishida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

mulkni insofli egallovchining mulkiy huquqlari himoya qilinishi bo'yicha bildirilgan takliflardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-avgustdagi "Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-198-sonli Farmonining 6-bandini ishlab chiqishda (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2023-yil 4-avgustdagi 11/32-3/1-505-sonli dalolatnomasi) foydalanilgan. Mazkur takliflarning joriy etilishi xususiy mulk daxlsizligi va himoyasi kafolatlarini yanada kuchaytirish hamda mulkdorlarning huquqlarini ishonchli muhofaza qilish imkonini bergan;

mulkdorning buzilgan huquqlarini tiklashning moliyaviy mexanizmlarini qo'llash bo'yicha ilgari surilgan taklifdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-dekabrda 1047-sonli qaroriga ilova sifatida tasdiqlangan "Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo'yicha respublika va hududiy maqsadli jamg'armalar mablag'larini shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizomning (o'zgartirish va qo'shimcha kiritish haqidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 5-yanvardagi 9-son qarori bilan kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga asosan) 9-bandi "b" kichik bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-aprelda 12-15-36-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi xususiy mulk bo'lgan ko'chmas mulkni insofli egallovchilarning huquqlarini samarali himoya qilishga, bunda mulkdorlarning huquqlarini ta'minlashni yanada kuchaytirishga xizmat qilgan;

sud tomonidan turar joyga nisbatan insofli egallovchi deb topilgan jismoniy shaxsdan ushbu turar joyni unga nisbatan mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab uch yil o'tgach natura shaklida talab qilib olish tartibini bekor qilishga oid taklifdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-avgustdagi "Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-198-sonli Farmonining 1-bandi "b" kichik bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2023-yil 4-avgustdagi 11/32-3/1-505-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif insofli egallovchilar mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslikka xizmat qilgan;

xususiy mulk bo'lgan turar joyni insofli egallovchidan talab qilib olinmasligi natijasida mulkdorga yetkazilgan zarar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi huzuridagi “Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo‘yicha respublika maqsadli jamg‘armasi” hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi “Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo‘yicha hududiy maqsadli jamg‘arma”lar mablag‘lari hisobidan qoplab berilishiga doir taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-avgustdagi “Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–198-sonli Farmonining 4-bandini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2023-yil 4-avgustdagi 11/32-3/1-505-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif xususiy mulk bo‘lgan turar joyni insofli egallovchidan talab qilib olinmasligi natijasida mulkdorga yetkazilgan zararni undirish tartibi aniq belgilanishiga xizmat qilgan;

turar joy insofli egallovchidan qonunchilikda belgilangan tartibda talab qilib olinishiga yo‘l qo‘yilmasligi natijasida mulkdorga yetkazilgan zararining qoplab berilishiga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-dekabrda 1047-sonli qaroriga ilova sifatida tasdiqlangan “Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo‘yicha respublika va hududiy maqsadli jamg‘armalar mablag‘larini shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning (o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 5-yanvardagi 9-son qarori bilan bilan kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga asosan) 9-bandi 6-kichik bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-aprelda 12-15-36-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish tartibini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbat va ilmiy seminarlarda muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish, shu jumladan, ilmiy anjumanlarda 6 ta, milliy jurnalda 1 ta, xalqaro jurnalda 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tuzilishi kirish, 6 ta paragrafni qamrab olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 146 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan

bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobasiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Xususiy mulk huquqi daxlsizligi kafolatlarining tarixiy rivojlanishi va fuqarolik-huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida xususiy mulk huquqi daxlsizligini ta‘minlashning vujudga kelishi hamda O‘zbekistonda tadrijiy rivojlanishi, huquq tizimida tutgan o‘rni, xususiy mulk huquqi daxlsizligi tushunchasi va uning tashkiliy-huquqiy asoslari o‘rganilgan.

Dissertant tomonidan xususiy mulk huquqining kafolatlari tarixiy nuqtai nazardan tadqiq qilinib, uning jahonda taraqqiy topib borish jarayoni shartli ravishda turli davrlarga ajratilgan holda tahlil qilib chiqilgan, shu jumladan Qadimgi davrdagi Yunoniston va Rim davlatlarida xususiy mulk haqidagi dastlabki falsafiy qarashlar va g‘oyalar, O‘rta asrlar Yevropasida mavjud xususiy mulkka bo‘lgan feodal munosabatlar, burjua va sanoat inqilobi davridagi xususiy mulk huquqining himoyasi ahvoli hamda zamonaviy davrdagi umume‘tirof etilgan xalqaro hujjatlar va undagi tamoyillar, o‘z navbatida O‘zbekiston hududida turfa davrlarda xususiy mulk huquqi daxlsizligi taraqqiy topib borishi, mazkur zamonda yashagan faylasuf huquqshunos olimlarning bu boradagi bildirishgan o‘zaro ziddiyatli qarashlari tahlil qilingan.

Dissertant tadqiqot mobaynida bir guruh amaliyotchi huquqshunoslarning insonda tug‘ilishi bilan vujudga keladigan oliy huquqlari yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik kabi tabiiy huquqlar safiga mulk huquqini ham kiritish haqidagi mulohazalariga qarshi o‘laroq, mulk huquqini insonlarning tug‘ilishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tabiiy huquq emas, ya‘ni dunyodagi tug‘ilayotgan insonlarning hammasi ham muayyan mulkka ega bo‘lib tug‘ilmasligi mumkinligini, qolaversa, xususiy mulk huquqi qonuniy yo‘l orqali mahrum ham etilishi uning mutlaq huquq maqomini shubha ostida qoldirishi haqidagi xulosaga kelgan.

Huquqshunos olim M.Ashurovaga ko‘ra xususiy mulkka nisbatan belgilangan “daxlsizlik va davlat himoyasida bo‘lishlik” xususiy mulk huquqini himoya qilish choralari orasida o‘ziga xos o‘ringa ega. Birinchi navbatda “daxlsizlik” deganda, shaxsning o‘ziga yoki muayyan huquqlariga nisbatan qonunga zid bo‘lgan hattiharakatlar bilan u yoki bu darajada ta‘sir o‘tkazishni taqiqlovchi qonuniy choralar majmui nazarda tutiladi. Ikkinchidan, “daxlsizlik” – huquq subyektiga tegishli va uning vakolatlari ostida hamda xo‘jalik hukmronligidagi obyektning har qanday huquqbuzarliklardan xoli bo‘lishini qonun bilan ta‘minlanganligini ham anglatadi. Konstitusiyaning 65-moddasida belgilangan xususiy mulkning daxlsizligi ham, mulkdorga tegishli bo‘lgan mol-mulkka nisbatan huquqlarning har qanday buzilishi va u bilan bog‘liq manfaatlarga har qanday putur etkazilishining taqiqlanishini hamda xususiy mulk huquqi u kimga tegishli bo‘lishidan qat‘i nazar faqatgina qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardagi bekor qilinishi mumkinligi qoidasi ham xususiy mulkning daxlsizligining mazmunini ifodalaydi”, degan fikriga qo‘shilgan holda dissertant quyidagi mulohazalarni bildirgan, ya‘ni xususiy mulk huquqi daxlsizligi bu – birorta mulkdor o‘ziga tegishli xususiy mulkiga nisbatan egalik

qilish, foydalanish, uni tasarruf etishda ifodalanadigan huquqlarining har qanday noqonuniy buzilishidan qonunan muhofazalanganlik kafolatidir.

Dissertatsiyaning **“Xususiy mulk huquqi daxlsizligining mazmuni va uni ta’minlash kafolatlarining ilmiy-amaliy tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida xususiy mulk huquqi daxlsizligining mazmuni va uni amalga oshirish muammolari, xususiy mulk huquqi daxlsizligini ta’minlash kafolatlarining ifodalanishi hamda mazkur daxlsizlikni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni takomillashtirish masalalari o’rganilgan, shu bilan birga, mazkur masalalarga yechim bo’lishi mumkin bo’lgan takliflar ishlab chiqishga chuqur yondashilgan.

Huquqshunos olim V.Y.Ergashevning fuqarolar xususiy mulk huquqini bekor bo’lish asoslarini mulkdorning erki, xohish-irodasi qay darajada ifoda etilganiga qarab mulkdorning erki asosida, ya’ni ixtiyoriy yoki erki, irodasidan tashqari – majburiy – mulk huquqini bekor qiluvchi asoslarga ajratish xususidagi mulohazalari o’rganilib, mazkur fikrlardan farqli ravishda dissertant ushbu vaziyatlarni shartli ravishda uchta, ya’ni: 1) shaxs qonuniy yo’l bilan ixtiyoriy yoki majburiy tartibda xususiy mulk huquqi daxlsizligidan mahrum etiladi (masalan, xususiy mulkni ixtiyoriy oldi-sotdi qilish yoxud hadya qilish, qonuniy tartibda xususiy mulkni yo’q qilish (tugatish), xususiy mulkning davlatning qonun chiqaruvchi organi tomonidan qabul qilingan yangi qonuni, natsionalizasiya, rekvizisiya va musodara tartibida yoki sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoxud hukmi asosida); 2) noqonuniy yo’l bilan xususiy mulk huquqi daxlsizligiga putur etkazilishi (misol uchun, muayyan shaxsning xususiy mulk huquqi daxlsizligiga boshqa shaxslarning zarar etkazadigan ma’muriy huquqbuzarliklari yoxud jinoiy xatti-harakatlari natijasida kabilar); 3) fors-major holatlari (tabiiy ofat, baxtsiz hodisa, aviahalokat singarilar) oqibatida shaxslar xususiy mulk huquqi daxlsizligidan mahrum bo’lishi kabi guruhlarga bo’lgan holda tahlil qilib, tadqiq etgan.

Muallif yuqoridagi uchta holat davomida qo’llaniladigan nazariy huquqiy tushunchalar hamda mazkur turdagi nizolarni hal etishga qaratilgan mavjud normativ-huquqiy hujjatlardagi ayrim bo’shliqlar va muammolarni aniqlangan.

Xususan, natsionalizasiya, rekvizisiya va musodara (konfiskasiya) qilish kabi huquqiy tushunchalar batafsil o’rganib chiqilgan va bir qator masalalar tahlil etilgan.

Dissertant tadqiqot ishida xususiy mulkni natsionalizasiya qilishning asosiligi yuzasidan H.Sauma va M.Sanabria kabi huquqshunos olimlarning “barcha hollarda davlat tomonidan mulkdorga natsionalizasiya qilingan xususiy mulk uchun kompensatsiya va boshqa zararlar to’lanishi kerak”, degan fikrlariga hamda P.Sainazarova hamda M.Saaduev kabi olimlar o’z ilmiy ishlarida basharti davlat xususiy mulkni natsionalizasiya qilish uchun jiddiy sabablarga ega bo’lgan taqdirda davlatning natsionalizasiya qilish huquqi asosli bo’lishi haqidagi mulohazalariga qo’shilgan holda O‘zbekiston Respublikasida “Natsionalizasiya to’g’risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish hanuzgacha dolzarb bo’lib qolayotganligini va mazkur qonun loyihasida hamda amaldagi O‘zbekiston Respublikasi FKning 202-moddasi 1-qismida “beg‘araz” (misol uchun, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi tubdan o‘zgarib xususiy mulk bekor qilinganda, davlatlar birlashganida yoki bir necha davlatga bo‘lingan hollarda) asosda xususiy mulkni davlat mulkiga aylantirish masalasiga ham aniqlik kiritib ketilsa maqsadga muvofiq

bo'lishini asoslantirgan.

Muallif O'zbekiston Respublikasi FKning 203-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan rekvizitsiyaga berilgan ta'rif matnining "qonunchilikda" degan jumlasini amaldagi Konstitutsiyamizning 30-moddasi 1-qismidagi "hech kim rasmiy e'lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emas" va 65-moddasidagi "Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o'z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas", degan konstitutsiyaviy normalar talablariga zid sanalishini e'tiborga olib, FKning mazkur moddasini Konstitutsiyaga muvofiqlashtirishni taklif etgan.

Dissertant rivojlangan davlatlar (Yaponiya, Shvetsiya, Finlandiya)ning qonunchilik tajribasini o'rgangan holda amaldagi qonunchiligimizga (ya'ni O'zbekiston Respublikasi FKning 206-moddasi, "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 19-moddasi va "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonun matniga) yangi "yer uchastkalarining ekspropriatsiyasi" huquqiy atamasini kiritish sohada olib borilayotgan izchil islohotlarning mantiqiy davomi bo'lishi bilan birga fuqarolik qonunchiligimizni umumbashariy qabul qilingan jahon standartlariga muvofiqlashtirish taklifini bildirgan.

Muallif O'zbekiston Respublikasining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni 10, 16, 38-moddalarida, "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi Qonuni 13-moddasida fuqaro (jismoniy shaxs)larning xususiy mulk huquqlarining daxlsizligi inobatga olayotgan bo'lsa-da, biroq nodavlat yuridik shaxslarning xususiy mulk huquqlarini nazardan chetda qoldirganligini hamda jismoniy va yuridik shaxslarning xususiy mulk huquqi daxlsizligini huquqiy jihatdan tengligini baravar ta'minlash maqsadida ushbu normativ-huquqiy hujjatlarning tegishli moddalariga tuzatishlar kiritish takliflarini ilgari surgan.

Dissertant tadqiqot ishida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25 noyabrdagi 747-sonli qaroriga 1-ilova tariqasida tasdiqlangan "Tabiiy ofatlar oqibatida aholiga etkazilgan zararni qoplash tartibi to'g'risida"gi nizomning 1-bandi va 2-bandi mazmuni o'rtasida aniqlangan ixtilofni bartaraf etish hamda Nizom 1-bandida mavjud "jismoniy shaxs" jumlasini "jismoniy va (yoki) nodavlat yuridik shaxs" tariqasida tuzatish maqsadga muvofiqligini asoslab bergan.

Tadqiqotchi o'z tadqiqoti mobaynida huquqshunos olim X.T.Azizovning "xususiy mulk turlaridan biri sifatida fuqarolarning ehtiyojini qondiruvchi, iste'mol tavsifidagi – "shaxsiy mulk"ni ajratib ko'rsatish" to'g'risidagi mulohazalarini o'rgangan holda milliy qonunchiligimizda "shaxsiy mulk" tushunchasiga yagona qonuniy ta'rif hamon belgilanmaganini qayd etgan hamda mazkur huquqiy tushunchaga mualliflik ta'rifini ishlab chiqqan va O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonunini 7¹-modda bilan to'ldirish, shuningdek, Oila kodeksining 26, 93-moddalariga, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasiga tegishli tuzatish (to'ldirish)lar kiritish haqida xulosani ilgari surgan.

Muallif sudlar tomonidan xususiy mulk huquqi daxlsizligini himoya qilishga oid ishlar ko‘rilishi bilan bog‘liq ayrim nizolarning o‘ziga xos xususiyatlari va bu boradagi sud statistikasini tahlil qilish orqali sudlarda O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 45-moddasida nazarda tutilgan fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish bilan bog‘liq huquqbuzarlikka oid ko‘rib chiqilgan ishlar salmog‘i 2023-yilda keskin oshib, jami 3.057 (2022-yilda 2.530) tani tashkil etganini va mazkur norma 1994-yilda qabul qilingan tahrirda qolib ketganini aniqlagan hamda ushbu moddani zamon talablaridan kelib chiqib, yangi tahrirda qabul qilish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqqan.

Tadqiqotchi sudlarning xususiy mulk huquqi daxlsizligini ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni ko‘rib chiqish faoliyatini har tomonlama o‘rganib, ularning o‘z zimmalaridagi vazifalarni lozim darajada bajarishlarida bir qator muammolarni aniqlagan. Tadqiqot mobaynida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovda ishtirok etgan 100 nafardan ortiq respondentlarning 53,4% ayni vaqtda tegishli davlat organlari va idoralari xususiy mulkdorlarning huquqlarini samarasiz himoya qilishayotganini, qolaversa, 31,1% xususiy mulk huquqining buzilishiga oid nizolar sudga murojaat qilish orqali hal etilishini bayon etishgan. Shunga ko‘ra, muallif odil sudlov zimmasiga tushayotgan katta ish yuklamasini tegishli protsessual muddatlar doirasida ko‘rib chiqishni ta‘minlash hamda “adolat” me‘zoni buzilishi xavfini oldini olish maqsadida mazkur turdagi huquqiy muammolarni qonuniy echishning sudga qadar hal etish tartibini takomillashtirgan holda O‘zbekiston Respublikasi “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunini 17¹-modda bilan to‘ldirish taklifini ilgari surgan.

Dissertant sud amaliyotini atroflicha tahlil qilish davomida sudlar tomonidan xususiy mulk huquqi daxlsizligiga doir ishlarni mazmunan ko‘rib chiqishda yangi tahrirdagi Konstitusiyamizda mavjud “inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi” to‘g‘risidagi konstitusiyaviy qoidani e‘tibordan chetdan qoldirishayotganligini aniqlab, buni kelgusida baratrafi etish uchun O‘zbekiston Respublikasi “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasiga, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida” Qonunining 11-moddasiga, Soliq kodeksining 13-moddasiga, Iqtisodiy prosessual kodeksning 13-moddasiga, Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi 15-moddasiga tuzatishlar kiritish, Iqtisodiy protsessual kodeksni 13¹-modda hamda Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksni 15¹-modda bilan to‘ldirish maqsadga muvofiqligini asoslab bergan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Xususiy mulk daxlsizligini himoya qilishning xorij tajribasi va milliy qonunchilikka tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari”** deb nomlanib, unda xususiy mulk daxlsizligini himoya qilishning xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida qiyosiy-huquqiy tahliliga, shuningdek, xususiy mulk huquqi daxlsizliginini rivojlantirish istiqbollari doir masalalar o‘rganilgan.

Dissertant tomonidan xususiy mulk bo‘lgan yer uchastkasiga boshqa shaxslarning kirishi (o‘tishi)ni cheklash maqsadida har xil turdagi to‘sinlar (ariqlar, to‘siqlar, panjaralar, ihotalar) o‘rnatish borasidagi qator xorijiy davlatlar (Fransiya,

Italiya, Kanada, Gollandiya, Belarus Respublikasi, Armaniston, Qozog‘iston) qonunchiligi tajribasida mavjud “devor o‘rnatish” huquqiga doir normalarni O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 172-moddasiga va Yer kodeksining 39-moddasiga tegishli tartibda kiritish haqidagi takliflarni ilgari surgan.

Tadqiqotchi fikricha, amaldagi qonunchiligimizda mulkdor o‘zining xususiy mulkini har qanday tajovuzdan huquqni buzishga mutanosib tarzda va huquq buzilishining oldini olish uchun zarur harakatlar doirasi, shu jumladan, zaruriy mudofaa holatida o‘zi himoya qilish huquqi aniq belgilanishi lozim bo‘lib, bunda O‘zbekiston Respublikasi “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasini tegishli tartibda to‘ldirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan hamda asoslantirilgan.

Muallif tomonidan rivojlangan xorijiy mamlakatlar (Avstraliya, Germaniya)ning huquqni qo‘llash tajribasi atroflicha o‘rganilib, tahlil qilingan va “Torrens tizimi tamoyillari”ning takomillashgan ko‘rinishi bo‘lgan “Hand muss Hand wahren” (qo‘l qo‘lni saqlaydi) qoidasini O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 229-moddasiga kiritish yuzasidan takliflar asoslantirilgan.

XULOSA

“Xususiy mulk huquqining daxlsizligini ta‘minlash muammolari” mavzusidagi dissertatsiya doirasida olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida nazariy va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi xulosalarga kelindi:

I. Ilmiy-nazariy tavsifa va xulosalar

1. Xususiy mulk huquqi daxlsizligining jahonda taraqqiy etish bosqichlarini tahlil qilish natijalari bu boradagi davrlarni to‘rt bosqichga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiqligi haqida xulosalarni ilgari surishga undadi. Bular quyidagilar:

birinchi davr – Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim davlatlarida mavjud xususiy mulk haqidagi dastlabki falsafiy qarashlar va g‘oyalar paydo bo‘lgan davrdan boshlab G‘arbiy Rim Imperiyasi qulab, feodalizmga asoslangan mulkiy munosabatlar paydo bo‘lguniga qadar bo‘lgan bosqichni tashkil etadi (miloddan avvalgi taxminan II minginchi-yillikdan – milodiy V asrgacha);

ikkinchi davr, ya‘ni G‘arbiy Yevropada feodalizmga asoslangan tuzum vujudga kelishidan boshlab toki burjua inqiloblari yuz berib, xususiy mulk huquqining daxlsizligini ta‘minlashga qaratilgan ilk tarixiy huquqiy-hujjatlar (1789-yil 26 avgustda qabul qilingan “Inson va fuqaroning huquqlari to‘g‘risida”gi Fransiyaning deklaratsiyasi yoki 1791-yilda AQSH Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgartishlar) yaratilguniga qadar bo‘lgan davr (milodiy V – XVIII asrlar);

uchinchi davr tariqasida xususiy mulk huquqining daxlsizligini ta‘minlashga qaratilgan dastlabki tarixiy huquqiy-hujjatlar yaratilganidan boshlab to BMT Bosh Assambleyasining №217 A (III) Rezolyusiyasi bilan qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” qabul qilinguniga qadar bo‘lgan davr (milodiy XVIII asrlar – 1948-yil);

to'rtinchi davr – xususiy mulk huquqi daxlsizligining jahonda taraqqiy etishining 1948-yildan to hozirgacha bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab olib, mazkur davrda bir qator universal xalqaro huquqiy hujjatlar vujudga keldi (misol uchun, "Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish haqida"gi 1950-yilgi Yevropa konvensiyasiga 1-ilova sifatida 1952-yil 20-mart kuni qabul qilingan Bayonnoma).

2. Xususiy mulk huquqi daxlsizligini ta'minlashning O'zbekistonda tadrijiy rivojlanish davrlarini ham shartli ravishda to'rt bosqichga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq. Bular quyidagilar:

birinchi davr – o'lkamiz hududida qadimgi odat normalari hamda Zardushtiylik dini tarqalgan vaqtdan boshlab mintaqa hududiga Islom dini kirib kelib, musulmon huquqi (shariat) o'rnatilguniga qadar bo'lgan davr (chamasi miloddan avvalgi VII-VI – milodiy VIII asrlar);

ikkinchi davr – o'ziga yurtimiz hududida musulmon huquqi (shariat) o'rnatilgan paytdan boshlab Oktyabr inqilobi sodir bo'lib, hokimiyat tepasiga sovet bolsheviklari kelguniga qadar bo'lgan davr (milodiy VIII asr – 1917-yil);

uchinchi davr esa Sovetlar hukumati o'rnatilgan vaqtdan O'zbekiston mustaqillik arafasiga qadar bo'lgan davr, ya'ni 1917-yildan 1990-yil 31-oktyabr kuni "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonun qabul qilingunicha bo'lgan davr;

to'rtinchi davr – "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi qonun qabul qilingan paytdan boshlab to hozirgi kunga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, mazkur davr mobaynida mamlakatimizda bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

3. Xususiy mulkning daxlsizligi – bu jismoniy shaxslarga va (yoki) nodavlat yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan moddiy ne'matlar bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarga nisbatan davlat yoki uchinchi shaxslarning noqonuniy aralashuvi, cheklovi yoxud ularni begonalashtirishdan himoya qiluvchi tamoyil va huquqiy maqom.

4. Xususiy mulk huquqi daxlsizligi deganda birorta jismoniy shaxs va (yoki) nodavlat yuridik shaxs o'ziga tegishli xususiy mulkiga nisbatan xususiy tarzda egalik qilish, foydalanish, uni tasarruf etishda ifodalanadigan huquqlarining har qanday noqonuniy buzilishidan qonunan muhofazalanganlik kafolati tushuniladi.

5. Haqiqiy zarar va boy berilgan foyda qonunchiligimizda aniqroq belgilanishi kerak. Bu zararlarni undirish jarayonida anglashmovchiliklar va suiste'molliklarni oldini olishga yordam beradi. Misol uchun, boy berilgan foydani baholash uchun qat'iy muayyan mezonlar belgilanishi lozim, shundagina uning miqdori bo'yicha nizolar ehtimolini keskin kamaytirish mumkin.

6. Fuqarolik-huquqiy huquqbuzarliklar bilan bog'liq sud jarayonlarini yaxshilash zarur. Xususan, xususiy mulk huquqlarini buzish bo'yicha ishlarni ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirish, sudyalarni fuqarolik ishlarining xususiylariga o'rgatish, shundagina ular dalillarni yanada samarali baholay olishlari va zarar miqdorini aniqlash imkoniga ega bo'lishlari mumkin.

7. Da'vogarlar kompensatsiyani tezroq va osonroq olishlari uchun neustoykani undirish tartiblarini soddalashtirish imkoniyatini ko'rib chiqish zarur. Bu ba'zi jarayonlarni elektron raqamlashtirish yoki oldindan himoya choralari

joriy etishni o'z ichiga qamrab olishi mumkin.

8. Agar javobgarlarning harakatlari da'vogarlarning xususiy mulk huquqlarini buzilishi bilan bog'liq bo'lsa, u holda fuqarolik huquqida javobgarlarga nisbatan "ayblilik prezumpsiyasi" tamoyilini joriy etish orqali da'vogar uchun uning zimmasidagi aybni isbotlash yukini salmoqli kamaytirishga yordam bergan bo'lardi.

9. Xususiy mulk egalari huquqlarini himoya qilish uchun qo'shimcha mexanizmlarni yaratish, masalan:

mulkni yo'qotish yoki zararlanish xavfini sug'urtalash;

mulk huquqlarining buzilishidan jabrlanganlarga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari kabilar.

II. Qonunchilikni takomillashtirishga doir tavsiyalar va takliflar

10. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 202-moddasi birinchi qismidagi "Natsionalizatsiya" atamasidan keyin "*jismoniy*" so'zi bilan to'ldirish hamda ushbu qismning "haq to'lash" so'zlaridan so'ng "*yoki beg'araz*" so'zlarini kiritish zarur bo'lib, "Natsionalizatsiya to'g'risida"gi Qonun loyihasini ishlab chiqqan holda xususiy mulk natsionalizatsiya qilinayotganiga aynan qaysi hollarda haq evaziga (masalan, xususiy mulk shartnomaviy asosda davlat ixtiyoriga o'tkazilayotganda, xususiy mulk bo'lgan yirik kompaniya bankrotlik yoqasida turgan hollarda) yoxud beg'araz (misol uchun, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi tubdan o'zgarib xususiy mulk bekor qilinganda, davlatlar birlashganida yoki bir necha davlatga bo'lingan hollarda) asosda amalga oshirish me'zonlarini ko'rsatish lozim.

